

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
FAOLIYAT KO'RSATADIGAN PEDAGOGNING
KASBIY INNOVATSION YONDASHUVI**

Kasimova D.B.

o'qituvchi Nizomiy nomidagi TDPU

To'ychiyeva Sevinch Rabbim qizi

"Maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovation faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar va nazariyalar yangiliklar va ulardan foydalanishning yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda ta'lism berish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning innovation faoliyati bolalarning mustaqilligi, qiziquvchanligini oshirish, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: innovation, samaradorlik, tizim, rivojlanish, ta'lism-tarbiya

Abstract: The article highlights pedagogical approaches and theories based on innovative activity. Information is also given on the innovative activities of teachers to increase the independence of children, curiosity, and the development of their creative thinking.

Key words: innovative, efficiency, system, development, education.

Maktabgacha ta'lism sifatini ta'minlash bu sohada samaradorlikka erishishning muhim vazifalaridandir. Bu masala maktabgacha ta'lism sohasida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning assosiy mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lismni yangi sifat bosqichiga ko'tarish soha mutaxassislarini tayyorlashning mazmuni va uslubini innovasiyalarga asoslangan holda qayta qurishni

talab qiladi. Buning uchun maktabgacha ta’lim sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimining mazmuni, dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlatning ta’limning mazkur bo‘g‘ini oldiga qo‘ygan talablari asosida takomillashtirish lozim.

Jamiyatdagi rivojlanish tamoyillari bugungi bolalar o‘zlarining 10-15 yil avvalgi tengdoshlariga nisbatan ko‘proq narsani bilishlari zarurligini taqozo qilmoqda. Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilar soni sezilarli darajada ko‘paymoqda. Shuning uchun ham maktabgacha ta’limning samaradorligini ta’minlash uchun bog‘cha rahbarlari va pedagoglar ta’lim-tarbiyaning samarali usullari va metodlarini izlab topish ustida tinmay harakat qilishlari kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minlash uchun ta’lim jarayonini modernizasiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Buning uchun bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish va o‘zaro mujassamlashtirish talab etiladi.

Maktabgacha ta’limning sifati ta’limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga oid yagona talablarni ishlab chiqish lozim. Ushbu talablar sifatli ta’lim va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta’lim berish 3 yoshdan boshlanadi va 7 yoshgacha davom etadi.

Maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashda mazkur maqsadga yo‘naltirilgan oliy pedagogik ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga muvofiq tarzda takomillashtirishni talab qilmoqda.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda asosiy e’tibor ularni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga o‘rgatishga qaratilishi kerak. Maktabgacha ta’limni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimi oldiga ham yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Chunki bugungi kunda maktabgacha ta’lim berish usulari, myetodlari, prinsiplari va uni boshqarishga bo‘lgan yondashuvlar ham yangilanmoqda. Bu sohaga jahon tajribasini keng qo‘llash taqozo qilinmoqda.

Maktabgacha ta’limning yangi sifatini nafaqat uning mazmuni ta’minlaydi, balki maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogning shaxsiyati,

axborotlarga bo‘lgan munosabati ham bu tizimda alohida o‘rin tutadi. Mazkur tizimda ta’lim muhiti va yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogning kasbiy mahorati bolalarning dastur materiallarini chuqur o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Терехова, О. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ–РЕЗУЛЬТАТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(23), 17-20.
2. Жўраева, Н. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ СИФАТИ ИНДИКАТОРЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МАЗМУНИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 491-493.
3. Sabirovna, A. G. (2022). Formation of Self-Estimation in Preschool Children. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 6-8.
4. Махмудова, Д.М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методлари. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
5. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организаций. In international scientific and practical conference "the time of scientific progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107)
6. Nurbayeva, I. T. (2022, November). Models of pedagogical communication in the educational process. In international scientific and practical conference "the time of scientific progress" (vol. 1, no. 3, pp. 88-95).
7. Kasimova D.B. (2022). Management of the Plot-Role-Playing Games of Preschool Children in the Conditions of Pre-School Education. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 9-11.

8.Алиходжаева, Г.С. (2021). Формирование социально-коммуникативной компетентности у детей старшего дошкольного. Экономика и социум, (5-1), 46-50.

9.Chorieva, D. A. (2022, November). DIAGNOSTIC FEATURES TO IMPROVE LEARNING PROCESS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 145-149).

